

## MEHNAT MUHOFAZASI VA TEXNIKA XAVFSIZLIGI” TA’LIM YO’NALISHINING FAOLIYAT OB’EKTлари VA ISH SOHALARI TO’G’RISIDA TUSHUNCHA

**Karimov Bahodir**

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti  
“Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi” kafedrası assistenti.  
Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti, 180100.  
Mustaqillik ko’chasi-225, Qarshi, O’zbekiston.  
Elektron pochta: [baxodirkarimov0928@mail.com](mailto:baxodirkarimov0928@mail.com)

### ANNOTATSIYA

Yo’nalish bo’yicha fan, texnika va texnologiyalarning zamonaviy yutuqlari, kadrlar buyurtmachilari talablaridan kelib chiqqan holda bakalavrlarning kasbiy faoliyat ob’ektlarida qo’shimcha va o’zgarishlar bo’lishi mumkin. Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi ta’lim yo’nalishi bo’yicha Milliy malaka ramkasining 6-malaka darajasi hamda bakalavr kasbiy faoliyatlarining sohalari, ob’ektlari va turlariga muvofiq bakalavriat bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo’lishi lozim:

**Kalit so’zlar:** ob’ekt, jarayon, tizim, mashina, agregat, jihoz, texnik vositalar xavfsizligi, sinash, texnik nazorat, metrologiya, texnologik jarayon, ishlab chiqarishni avtomatlashtirish, boshqarish, mashinasozlik, energetika, elektronika, asbobsozlik, xizmat ko’rsatish-foydalanish, ekspertlik, nazorat va inspektorlik-auditorlik.

### KIRISH

Mavzuning dolzarbligi, Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi ta’lim yo’nalishi bo’yicha bakalavrlarning kasbiy kompetensiyalariga qo’yiladigan talablar

**Faoliyat** – insonning yashashi uchun zarur bo’lgan asosiy shart-sharoitlardan biridir. **“Mehnatni muhofaza qilish”** insonning ishlab chiqarishdagi faoliyatida sodir bo’ladigan turli ko’rinishdagi xavflarni bartaraf etish va ulardan himoyalaniş yo’llarini o’rganishga qaratilgan tadbirlar majmui va vositalar tizimidan iboratdir.

**Mavzuning asoslanishi;** Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi ta’lim yo’nalishi bo’yicha bakalavrlarning kasbiy vazifalari

Insonning mehnat xavfsizligini ta’minlashda ilmiy-nazariy izlanishlar asosida vujudga kelgan qonunlar, nizomlar, standartlar, ko’rsatmalar, qoidalar va sanitar-texnik me’yorlar hamda ularni o’rganish bo’yicha uzluksiz ta’lim-tarbiya tizimini vujudga keltirish, uni rivojlantirish muhim o’rin to’tadi.

Mehnatni muhofaza qilishning **asosiy maqsadi** talabalarga insonning ishlab chiqarishdagi mehnat faoliyati davrida yuzaga keladigan xavfli omillar, ularning kelib chiqish sabablari va bartaraf etish yo'llari, mehnat xavfsizligini ta'minlash hamda xavfsiz va sog'lom ish sharoitlarini yaratish bo'yicha nazariy bilim berish va amaliy ko'nikmalar hosil qilishdan iboratdir.

Inson uchun qulay, xavfsiz va sog'lom mehnat sharoitini yaratish quyidagi **vazifalarni yechishni** talab etadi:

### **ASOSIY QISM**

Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining ob'ektlari va kasbiy faoliyat turlari

Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining ob'ektlariga quyidagilar kiradi:

- inson faoliyati bilan bog'liq bo'lgan xavf va inson;
- inson faoliyati bilan bog'liq bo'lgan yashash muhiti xavflari;
- texnosfera bog'liq bo'lgan yashash muhiti xavflari;
- xavfli ishlab chiqarish va texnologik jarayonlar;
- xavfsizlikni ta'minlash masalalariga oid huquqiy -me'yoriy hujjatlar; xavflarni, risklarni baholash usullari va vositalari;
- inson va yashash muhitini xavflardan muhofazalash usullari va vositalari;
- atrof tabiiy muhitga ko'rsatiladigan antropogen ta'sirlarni va xavflarni me'yorlashtirish qoidalari;
- insonni turli vaziyatlarda himoyalash usullari va vositalari.

Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari quyidagilardan iborat:

- xizmat ko'rsatish-foydalanish;
- ekspertlik, nazorat va inspektor-auditorlik;
- ilmiy-tadqiqot;
- loyihaviy-konstruktorlik;
- tashkiliy-boshqaruv

Yo'nalish bo'yicha fan, texnika va texnologiyalarning zamonaviy yutuqlari, kadrlar buyurtmachilari talablaridan kelib chiqqan holda bakalavrlarning kasbiy faoliyat ob'ektlarida qo'shimcha va o'zgarishlar bo'lishi mumkin.

Ta'lim yo'nalishi bo'yicha tayyorlangan bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining muayyan turlari ta'lim jarayonining manfaatdor ishtirokchilari bilan hamkorlikda oliy ta'lim muassasasi tomonidan aniqlanadi.

Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi ta'lim yo'nalishi bo'yicha Milliy malaka ramkasining 6-malaka darajasi hamda bakalavr kasbiy faoliyatlarining

sohalari, ob'ektlari va turlariga muvofiq bakalavriat bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo'lishi lozim:

**Xizmat ko'rsatish-foydalanish faoliyatida:**

- himoya vositalaridan foydalanish;
- himoya vositalari holati nazoratini amalga oshirish;
- xavfsizlikni nazorat qilish vositalaridan foydalanish;
- insonni va yashash muhitini himoyalashni va favqulodda vaziyatlarni bartaraf etishni konkret sharoitlarida qo'llaniladigan mavjud usullarini(tizimlarini) oqilona tanlash;
- xavfsizlik texnikasi yo'riqnomalarini tuzish;
- xavflardan himoyalash vositalariga texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash;
- xavfsizlikni nazorat qilish vositalarini tanlash va foydalanish;
- bir yoki bir nechta ishchi kasblar, xizmat lavozimlari bo'yicha vazifalarni bajarish.

**Ekspertlik, nazorat va inspektorlik-auditor faoliyatida:**

- yashash muhitidagi xavflar maydoni va manbalari monitoringini amalga oshirish;
- xavfsizlik ekspertizasini o'tkazishda ishtirok etish;
- yuqori texnogen risk jarayonlarni aniqlash.

**Ilmiy-tadqiqot faoliyatida:**

- tajribaviy tadqiqotlarni rejalashtirish, texnik vositalar va tadqiqotlar uslublarini tanlashda ishtirok etish;
- muayyan uslub bo'yicha tadqiqotlar bajarish, ular natijalarini tahlil qilishda ishtirok etish;
- xavfsizlikni ta'minlashning yangi uslublari va vositalarini ishlab chiqish (ijodiy jamoa tarkibi)da ishtirok etish;
- zamonaviy metodlar va vositalardan foydalanib faoliyat ob'ektlari holatini tahlil qilishda qatnashish;
- ishlab chiqarish texnologiyalari sohasidagi maxsus adabiyotlar, ilmiy-texnikaviy ma'lumotlar, chet elda va respublikada erishilgan fan va texnika sohasidagi axborotlarning ilmiy manbalarini o'rganish;
- mavzu (topshiriq) bo'yicha ilmiy-texnikaviy ma'lumotlarni jamlash, ishlov berish, tahlil qilish va olingan ma'lumotlarni tizimlashtirishda ishtirok etish;
- ilmiy-tadqiqot natijalarini va ishlanmalarni amaliyotga tatbiq etishda qatnashish.

**Loyihaviy-konstruktorlik faoliyatida:**

- xavfsizlikni ta'minlash vositalarini muayyan sharoitlarda qo'llashga nisbatan ma'lum tizim va uslublar asosida asosiy ko'rsatkichlarni tanlash va hisoblash;

-xavflarni identifikatsiyalash va ular miqdoriy ko'rsatkichlarini aniqlash va o'lchash;

•ish o'rinlarini optimallashtirishda ish sharoitlarga ta'sir etuvchi omillarni maqbul qiymatlarini tizimiy yondoshuv asosida avtomatlashtirilgan ravishda ishlab chiqish;

•bajarilayotgan tajriba-konstruktorlik va amaliy ishlar mavzusi bo'yicha matematik, informatsion va imitatsion modellarni ishlab chiqish va tadqiqot qilish;

•loyihaviy va dasturiy hujjatlarni ishlab chiqish;

•texnik himoya vositalarining parametrlari va ishchanlik qobiliyatini aniqlash bo'yicha sinovlarni o'tkazish;

•amaliyotda axborot texnologiyalarning xalqaro va kasbiy standartlarini, zamonaviy metodologiyalarni, instrumental va hisoblash vositalarini tayyorgarlik ixtisosligiga mos ravishda qo'llash.

#### **Tashkiliy-boshqaruv faoliyatida:**

– ijrochilar jamoasi tarkibida intellektual mulk masalalari bo'yicha asosiy me'yoriy hujjatlardan foydalanish, patent informatsiyasi manbalari bo'yicha izlanish ishlarini olib borish;

– ishlab chiqarishda mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi bo'yicha mutaxassislarga qo'yiladigan talablarni ishlab chiqish;

– xavfsiz ishlab chiqarish jarayonlarini tashkil etish uchun zarur bo'lgan jihoz, vosita va resurslarni rejalashtirish;

– zamonaviy axborot-texnologiyalar tizimini yaratish va ulardan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan ishlab chiqarish jarayonlaridagi texnika xavfsizligi monitoringi va sifatini baholash uslublari hamda mexanizmlarini ishlab chiqishda ishtirok etish;

– mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi talablariga mos ishlab chiqarish jarayonlarini tashkil etishni nazorat qilish;

– kasbiy faoliyatga oid muammolar yechimlarini amaliyotga tatbiq etish;

– ishlab chiqarish jarayonida xavfsizlik holatini boshqarish;

– ijrochilar jamoasi ishini tashkil qilishda ishtirok etish;

– fikrlar har xil bo'lgan sharoitda boshqaruv qarorini qabul qilishda ishtirok etish;

– bajarayotgan faoliyati bo'yicha ish rejasini tuzish, uni bajarish, nazorat qilish va amalga oshirish natijalarini baholash;

– ishlab chiqarish jarayonlarining atrof-muhit muhofazasiga, yong'inga, texnika xavfsizligi va mehnat muhofazasi talablariga mosligini tahlil qilish.

### **Umumiy kompetensiyalar:**

- davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi, ijtimoiy-iqtisodiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olish;

- xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, tabiiy ilmiy fanlar bo'yicha kasbiy faoliyati doirasida zaruriy bilimlarga ega bo'lishi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asosda kasb faoliyatida foydalana bilish;

- axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatida qo'llay bilishi, axborotlarni yig'ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo'lishi, faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olish;

- yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o'z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olish;

- sog'lom turmush tarzi va unga amal qilish zaruriyati to'g'risida tassavvurga ega bo'lish.

### **XULOSA**

Me'yoriy-huquqiy hujjatlarni izlash, tahlil qilish va ulardan kasbiy faoliyatida foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lish;

- mehnat sharoitlarini baholash qobiliyatiga ega bo'lish, ishlab chiqrash xodimlari va aholini bo'lishi mumkin bo'lgan avariya, halokatlar, tabiiy ofailardan himoya qilish asoslarini va shikastlanishning zamonaviy vositalarini qo'llashi, ular oqibatlarini bartaraf qilishning asosiy tadbirlarini qo'llay bilishi;

- xavfsiz va sog'lom ish sharoitlarini yaratish va ish o'rinlarini xavfsizligini tahlil bo'yicha qobiliyatga ega bo'lish;

- xavfsiz mehnat sharoitini ta'minlash sohasida qabul qilingan qonun hujjatlari va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarning asosiy talablarini, xavfli va zararli ishlab chiqarish omillarining yuzaga kelishining oldini olish usullarini, ishlab chiqarishda mikroiklimning gigienik me'yorlarini tashkil etishni bilishi;

- ishlab chiqarish faoliyatdayuzaga keladigan xavflar va ularni o'rganish, ishlab chiqarish jarayonlarida xavfsiz mehnat sharoitlarini yaratish, texnosferada kasb kasalliklarini kamaytiradigan va baxtsiz hodisalarni oldini oladigan chora-tadbirlarni bilishi;

- mehnatni muhofazaning huquqiy – me'yoriy asoslari bilishi hamda, mehnatni muhofaza qilishning tashkiliy masalalarini va bulardan kelib chiqayotgan muammolarni barataraf etishni bilishi;

- ishlab chiqarish tarmoqlarida xavfsiz ish sharoitini tashkil etishni, elektr qurilmalari, uskunalari, mashina va mexanizmlarni ishlatganda, texnik xizmat ko'rsatganda va ta'mirlashda ko'riladigan asosiy texnika xavfsizligi talablari, yong'in chiqish sabablari, ular oldini olish va o'chirishning tashkiliy va texnik vositalarini bilishi;

- zararlangan shikastlanish o'choqlaridagi fuqarolarni qutqarish va tiklov ishlarini o'tkazish, yong'inga qarshi xavfsizlik choralari ko'rish, jarohat olganlarga birlamchi tibbiy yordam ko'rsatish va boshqa muhim vazifalarni bajara oladigan bilim, ishlab chiqarish sanitariyasi va mehnat gigienasi to'g'risida ko'nikmalarga ega bo'lish.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)**

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. T.: «O'zbekiston», 1992y.
2. O'zbekiston Respublikasining mehnat kodeksi. T.: 1996y.
3. O'zbekiston Respublikasining mehnatni muhofaza qilish to'g'risidagi qonuni. T.: 2016y
4. 5640200 –Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi ta'lim yo'nalishi malaka talablari. 2020y.
5. Рахимов О.Д. Hayot faoliyat xavfsizligi maruzalar kursi. 2021-y
6. hfzrahimov.uz – Hayot faoliyat xavfsizligi fanidan shaxsiy veb-sayt (prof.O.D.Raximov sayti)
7. Karimov Bahodir O'ktam o'g'li, Yusupov Begzod Ismoil o'g'li, CLASSIFICATION OF DANGEROUS AND HARMFUL FACTORS IN UZBEKISTAN GTL" FACTORY. GOLDEN BRAIN. 2023-11-29.
8. Мурадов С. ПРОБЛЕМЫ ТУШЕНИЯ ПОЖАРОВ КЛАССА Е ЛИЧНЫМ СОСТАВОМ ПОЖАРНОЙ ОХРАНЫ В МИРЕ //International journal of advanced research in education, technology and management. – 2023. – Т. 2. – №. 5.
9. O'G'LI M. S. H. ANALYSIS OF "MEASURES TO ENSURE OCCUPATIONAL SAFETY IN THE FIELD OF CARGO TRANSPORTATION AND LOADING." //International journal of advanced research in education, technology and management. – 2023. – Т. 2. – №. 9.
10. ЎҒЛИ Р. Х. Ф., СИРОЖИДДИН М. ИЗУЧЕНИЯ УСЛОВИЯ ТРУДА В КОМПАНИИ ЕВРОПЫ. МУРАДОВ СИРОЖИДДИН //International journal of advanced research in education, technology and management. – 2023. – Т. 2. – №. 10.
11. O'G E. L. A. A. et al. PHYSIOLOGICAL AND HYGIENE BASIS OF HUMAN LABOR ACTIVITY //International journal of advanced research in education, technology and management. – 2023. – Т. 2. – №. 11.
12. Husan o'g'li M. S., Shavkat o'g'li E. D. INNOVATIVE SOLUTIONS TO PROTECT WORKERS FROM DANGEROUS GAS AND TOXIC SUBSTANCES IN HAZARDOUS INDUSTRY ENTERPRISES.
13. Husan o'g'li M. S., Utkir o'g'li Z. U. PRINCIPLES OF PASSING AND DOCUMENTING INSTRUCTIONS ON SAFETY TECHNIQUES.
14. Rayimkulov A., Murodov S. Some Issues of Safety in the Use of Tower Cranes Used in Construction Projects //JournalNX. – С. 301-308.
15. Sultonova D. N., qizi Siddiqova M. A. COLOR SCHEME IN THE FORMATION OF THE ARTISTIC ENVIRONMENT OF THE INTERIOR OF MODERN EDUCATIONAL CENTERS //Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – Т. 2. – №. 14. – С. 109-115.